

**INFORMATION ON THE NORMATIVE QUALITIES OF THE CONCEPT OF
DISCOVERY**

Associate Professor, Nizami State University of Uzbekistan

Baltabaev Salimjan Akramovich**KASHFIYOT TUSHUNCHASINING ME'YORIY SIFATLARI HAQIDA
MA'LUMOT**

Nizomiy nomidagi O'zMPU Dotsent

Baltabaev Salimjan Akramovich

Annotatsiya: Kashfiyot izlanish, tekshirish, ilmiy tadqiqot natijasida, ba'zan esa tasodifan topilgan, yaratilgan ilmiy yangilik. Unga tabiat hodisalari va jamiyat qonuniyatlarini ongli ravishda ilmiy idrok qilish natijasida erishiladi. Kashfiyot tufayli moddiy dunyoning ilgari insoniyatga ma'lum bo'lmagan obyektiv qonuniyatlari, xossalari va hodisalari ma'lum bo'ladi.

Аннотация: Открытие — это научное новшество, найденное или созданное в результате исследований, изысканий, научных изысканий, а иногда и случайно. Оно достигается благодаря осознанному научному восприятию природных явлений и законов общества. Благодаря открытию становятся известны объективные законы, свойства и явления материального мира, которые ранее были неизвестны человечеству.

Annotation: A discovery is a scientific innovation discovered or created through research, exploration, scientific inquiry, and sometimes even by chance. It is achieved through a conscious scientific understanding of natural phenomena and the laws of society. Through discovery, objective laws, properties, and phenomena of the material world that were previously unknown to humanity become known.

Kalit so'zlar: Kashfiyot, izlanish, tekshirish, ilmiy tadqiqot natijasi, ijodkorlik, kasb-hunar, o'qitish, ta'lim, novatorlik, fan-texni, yangilik.

Ключевые слова: Открытие, исследование, изучение, результаты научных исследований, творчество, профессия, преподавание, образование, инновации, наука и техника, новизна.

Keywords: Discovery, exploration, study, scientific research results, creativity, profession, teaching, education, innovation, science and technology, novelty.

Sayyoramizda ixtirochilar va kashfiyotchilar hamma asrda ham bo'lgan. Eramizdan avvalgi davrlardan boshlab kimdir olovdan qanday foydalanishni tushunib yetganidan boshlab kashfiyotlar hayotimizni jo'nroq va qulayroq qilishga xizmat qilib kelmoqda.

Kashfiyot izlanish, tekshirish, ilmiy tadqiqot natijasida, ba'zan esa tasodifan topilgan, yaratilgan ilmiy yangilik. Unga tabiat hodisalari va jamiyat qonuniyatlarini ongli ravishda ilmiy idrok qilish natijasida erishiladi. Kashfiyot tufayli moddiy dunyoning ilgari insoniyatga ma'lum bo'lmagan obyektiv qonuniyatlari, xossalari va hodisalari ma'lum bo'ladi. Kashfiyot insoniyatning bilish jarayoni darajasini tubdan o'zgartiradi. Kashfiyot fan texnologiya inqilobining asosini tashkil etadi, fan va texnika taraqqiyotiga tubdan yangi yo'nalishlarni baxsh etadi. Inson bosib o'tgan tarixiy jarayonda juda ko'p Kashfiyotlar qilindi. Kashfiyot bilan



ixtironi bir-biridan farqlay bilish kerak. Kashfiyot natijasida muayyan qonuniyatlar yaratiladi, ixtiro natijasida esa muhim yangiliklar yaratilishi mumkin. Masalan, Arximedning suv chiqarish vinti o'ta yangilik bo'lsa ham u ixtiro hisoblanadi, I. Nyutonning butun olam tortishish qonuni esa olamshumul kashfiyotdir. Hatto ichki yonuv dvigatelining yaratilishi ham ixtiro, lekin N.Kopernikning yerning o'z o'qi atrofida va sayyoralarining shu jumladan, yerning quyosh atrofida aylanishi to'g'risidagi g'oyasi — olamshumul kashfiyotdir. Avtomobil va samolyotning yaratilishini ham ilmga, tabiat qonuniyatlariga asoslangan ixtiro deyish mumkin. Lekin Galileo Galileyning qushlarning uchishiga taqlid qilib samolyotning uchish sxemasini yaratishi kashfiyot hisoblanadi. Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek yaratgan qonuniyatlar ham kashfiyotlar jumlasiga kiritiladi.

Yuqorida keltirilgan kashfiyot tushunchasining ta'rifidan uning quyidagi me'yoriy tushunchalari sifatida quyidagilar qabul qilinadi:

- ilmiy asoslarga ko'ra konstatsiya qilish.
- yangiligini asoslash.
- ishonchligini asoslash.

Ushbu me'yoriy tushunchalarni quyidagicha tavsiflash mumkin.

Birinchi keltirilgan «moddiy dunyoda ob'ektiv mavjud bo'lgan qonuniyatlar, xususiyat va hodisalarni qayd qilish» tushunchasi - kashfiyotning ob'ektiv borliqni bilish faoliyati natijasi ekanligini anglatadi. Bu o'rinda bilish tushunchasi o'z ichiga berilgan ob'ekt (qonuniyat, hodisa, xususiyat)ning mavjudlik sharti hamda ilmiy talqinga ega ekanligi to'g'risidagi holatlarni qamrab oladi.

“Kashfiyotning yangiligi”ga O'zbekistonda jahon miqyosidagi yangilikka ega bo'lish talabi qo'yiladi. Kashfiyotning jahon miqyosidagi yangiligi mezoniga tayanilganda, jahon miqyosidagi yoki vatanimizdagi birinchilikka da'vogar bo'lgan har qanday manba e'tiborga olinadi. Kashfiyotning birinchiligi qonuniyat birinchi bo'lib shakllantirilib, matbuotda da'vo sifatida e'lon qilingan sanasi asosida aniqlanadi.

“Kashfiyotning ishonchliligi” ob'ektiv mavjud bo'lgan qonuniyat, xususiyat va hodisaning aniqlanishi bilan belgilanadi. Har bir yaratilgan ob'ektiv yangilik (hodisa, xossa va ob'ektiv qonuniy bog'liqliklar) nazariy yoki amaliy jihatdan asoslanadi. Kashfiyot - ilmiy ekspertizadan o'tgandan keyingina huquqiy jihatdan tan olinadi. Ilmiy ekspertizadan o'tkazish uchun mualliflar (mualliflar kollektivi) qilingan kashfiyot bo'yicha talabnoma beradi. Talabnomadan namuna bo'yicha to'ldiriladi. Talabnoma o'z ichiga - kashfiyot bo'yicha diplom berish uchun ariza, qilingan kashfiyotning to'liq tasnifi, kashfiyotning afzalligini belgilovchi hujjatlar, ilmiy-amaliy ahamiyati va ishonchligi haqida xulosa, kashfiyotga tegishli chizmalarni oladi. Respublika patent idorasi dastlabki va ilmiy ekspertizadan o'tkazadi va ma'qul topsa kashfiyotni haqiqatligi haqida qaror qabul qiladi. Shu asosda muallifga diplom beradi. Kashfiyotning ahamiyatiga qarab pul mukofoti beriladi.

Novatorlik va ratsionalizatorlik xususiyatlarini aniqlash - kasbiy adaptatsiya ya'ni malakali mutaxassis yetishuvi bilan nihoyasiga yetadi. Bunda ko'zga tashlanadigan sifat mutaxassisning ijodiy mehnat qilishidir.

Novatorlik—ishlab chiqarishda fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishga intilish.



Ratsionalizatorlik—ijodiy mehnat qilish orqali kam mablag` va kuch sarflagan holda ko`p va sifatli mahsulot chiqarishga kirishish, shaxsiy takliflari bilan chiqish va boshqalardir.

Ratsionalizatorlik takliflari - bu xalq xo`jaligining tarmoqlarida yangi va foydali texnik vazifalarni yechishga, ya`ni mahsulotning loyihasini ishlab chiqarish texnologiyasini, foydalanilmayotgan texnikani yoki materiallarning xossasini o`zgartirishga qaratilgan bo`ladi. Ratsionalizatorlik ko`p qirrali muammo bo`lib, ko`proq iqtisodiy masalalarni hal etishga qaratilgan.

Ratsionalizatorlik fikrlar ma`lum talablarga javob berishi kerak: birinchidan, texnik yechimga ega bo`lishi, ikkinchidan, yangilik bo`lishi, uchinchidan foydali bo`lishi kerak. Ratsionalizatorlik fikrlar maxsus blankada ariza sifatida beriladi. Ratsionalizatorlik fikrlar qaysi korxonaga tegishli bo`lsa shu korxonaning IRJ ga ariza beriladi. Agarda fikrlar boshqa korxonalarga tegishli bo`lsa vazirlikka beriladi va ro`yxatga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. T.: “O‘zbekiston”. 2017 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.02.2025 yildagi 78-son. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.02.2025 y., 09/25/78/0130-son.
3. Muslimov N.A. Bulajak mehnat ta’limi o’qituvchisini kasbiy shakllantirish.-T.: fan, 2004 yil.
4. Boltaboev S.A. va boshqalar. Mehnat va kasb ta’limi metodikasidan o’quv mashg’ulotlari. Uslubiy qo’llanma. –T.: Nizomiy nomli TDPU, 2003.-18 b.
5. Boltaboev S.A. Yosh avlodni ma’naviy dunyo qarashini shakllantirish omillari. IQRO JURNALI volume14,issue 02,2025. 856-858 bet
6. To’lqinova X.T (2022). O’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirishda mehnat qilish odobini o’rgatish. volume14,issue02,2025. 856-858 betlar
7. Boltaboev S.A. Texnologiya ta’limi jarayonida didaktik tushunchalarining fanlar bilan aloqadorligi. Belorussko-Uzbekskiy nauchno-metodicheskiy jurnal. 2025 • № 1 ISSN 2181-2896

